



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA IQTIBOSLARNING QO‘LLANILISHI

Mirkamolova Yulduz Najmiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Manzar Abdulxayrov**

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: O‘zbek mumtoz adabiyotining go‘zal namunalaridan biri bo‘lmish iqtibos san’ati adabiyotimizning yetuk namoyondalari tomonidan sayqallangan va hozirgi kungacha bu ijodning ixlosmandlari ushbu sirli chashmadan qonib kelmoqdalar. Maqolada Alisher Navoiy asarlari timsolida iqtibos san’atini o‘rganilishi hamda talqin va tabdil xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: iqtibos san’ati, g‘azal, tasavvuf, tariqat, ma’rifat, hasbi hol.

Аннотация: Искусство цитирования, являющееся одним из прекрасных образцов узбекской классической литературы, отшлифовано зрелыми представителями нашей литературы, и до сих пор любители этого творчества довольствуются этим загадочным источником. В статье речь идет об изучении искусства цитирования в форме произведений Алишера Навои, а также его интерпретации и перевода.

Ключевые слова: искусство цитирования, газель, мистика, тарикат, просветление.



Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi say-harakatlar, ularning asarlariga bo'lgan qiziqishlarimizni ortishiga, mehnatlariga bo'lgan muhabbatimizning ziyoda bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ulug' shoir ijodida qo'llanilgan iqtibos san'ati bir sirli xazina bo'lib tadqiqotchilar turli tomondan, turli jihatlarini o'rganishsa-da hech biri "Men tugatdim" deyolgan emas. Chunki Navoiy asarlari Haq taolo yo'lidagi komil inson qalbi bilan yaratilgan, qalb va qalam birligida bunyod etilgan, go'zal bo'standir. Bu gulistondan har bir jon o'zi istagan zavqni topoladi. Aytish joizki, Navoiy ijodini Qur'oni karimsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, asarlarida qo'llanilgan iqtibos san'ati buning yorqin dalilidir. Iqtibos san'ati alohida san'at sifatida garchi XV asrda qayd qilingan bo'lsa-da, aslida, bir necha asr oldin ham qo'llanilgan. Koshifiy iqtibosga shunday ta'rif beradi "Iqtibos lug'atda olovni qamrab olmoqdur va istilohda uldurkim, shoir kalom tarkibi hamda so'z tartibida Qur'ondan biron oyat yo payg'ambar hadislaridan biron hadis yoxud fihiy masalalardan biron masalani tabarruk etish yo'lida keltururlar... Va bu san'atni shu jihatdan iqtibos derlarkim, olovni qamrab olganda nur va yorug'lik hosil bo'lganidek, iqtibos bo'ladigan so'zdan (ya'ni Qur'on oyati yo hadisdan) she'rda nur va ziyo hosil bo'lur" [1.110]. ¹Xususan, Navoiy asarlarida qo'llanilgan iqtiboslar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi natijasida, nafaqat so'zma-so'z kelgan o'rinlar, balki, boshqa o'rinlarda ham Qur'oni karim oyatlariga va Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislariga ishoralarni kuzatish mumkin. Olim Davlatov tomonidan yozilgan "Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini" nomli dissertatsiyada Navoiy she'riyatida oyat va hadislarining qo'llanilish mahorati, muqaddas kitobimizda nomlari zikr etilgan buyuk shaxslarning "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye' ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" devonlarida necha o'rinda qo'llanilganligi aniq ko'rsatib o'tilgan[2.15].

Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov tomonidan yozilgan navoiyshunoslik darsligida ham iqtibos san'atining o'rganilishida eng nodir namunalar ko'rsatilgan bo'lib, har bir qatorida oyati kalimalar yuksak mahorat bilan berilgan ushbu

¹ حسين و اعظ كاشفي بدايع الافكار في صنايع الاشعار موسكو ١٩٧٧ ص ١١٠



ijod parchalari, Navoiy iste'dodini ko'rsatibgina qolmay, uning shaxsini ochib berishda ham alohida xizmat qilgan[3.305].

Madina Ashirmatova tomonidan yozilgan "Alisher Navoiy va Fuzuliy g'azallarida iqtibos san'ati hodisasi" tadqiqotida ham Navoiyning "Badoye' ul-bidoya", "Favoyid ul-kibar" devonlarida keltirib o'tilgan iqtiboslarning mazmun va mohiyati ochib berilgan[4.26]. Shuningdek, "Arbain" va "Nazm-ul javohir" asarlari ham to'laligicha iqtibos san'ati bilan yo'g'rilganligini alohida takidlab o'tgan. Bundan tashqari Fayzullajon Abdulxamidovning "O'zbek mumtoz adabiyoti matnlarida Iqtibos san'ati hodisasi" dissertatsiyasida va H.S. Karomatov tomonidan yozilgan "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari" nomli dissertatsiyada ham Navoiy ijodida iqtibos san'atining keng o'rinlarda qo'llanilishi Hazratning nafaqat, ijodda, balki, shaxsiy hayotida ham Qur'on uning ajralmas bir qismiga aylanganligini tarix sahifalari isbotlab turibdi.

Alisher Navoiyning devonlarida shuningdek, "G'aroyib us-sig'ar" ning birinchi g'azalida ham iqtibos san'ati qo'llanilgan bo'lib, bu ko'plab olimlarimiz tomonidan sharhlangan. Biz ham quyida Hazratning iqtibos san'ati qo'llanilgan g'azallarini o'rganishni lozim topdik:

Vahki, har soat bo'lurmen vaslidin yetkach navid,

Yordin ummidvor, ammo o'zumdin noumid.

Dedi, mehmoning bo'lub yuz javr ila aylay halok,

Vahki, bor ul sho'xning har va'dasinda yuz vaid.

Qatlim etting, aylasunlar eltibon ko'yungda dafn

Kim, borur jannatqa zulmung tiyg'idin bo'lg'an shahid.

Tikti ko'ksun chokinu tiyg'in tanimda qildi gum,

El eshikni qufl etib tufroqqa ko'mgandek kalid.



Islaram ko'yung itining nechasin, ne ishkakim
Oncha osoyish dimog'img'a yeturmas mushkbid.
Do'st chun jon ichradur qo'y, «naxnu aqrab» so'zini
Tut bo'yun baskim, yaqinroq keldi «min hablil-varid».
Ey Navoiy, shah xayolin asra ko'z mulki aro
Kim, erur ham Bog'i Zog'on anda ham Bog'i Safid.

Mazkur baytlarning Qur'oni karimda keltirilgan so'zlar bilan kelishi, ular orasida mazmuniy bog'liqlik borligiga ishora beradi. Ushbu jumlar Qof surasining 16-oyatida shunday keladi:

ولقد خلقنا الإنسان ونعلم ما توسوس به نفسه، ونحن أقرب إليه من حبل الوريد - ١٦.

Ma'nosi: ("Albatta, insonni Biz yaratganmiz va uning nafsini nimani vasvasa qilishini ham bilurmiz. Va Biz unga jon tomiridan ham yaqinmiz".)

"Naxnu aqrab"-biz yaqinmiz, "min hablil-varid"- jon tomiri ma'nosida kelgan.

Har qanday g'azalni sharh qilishda, avvalo, notanish so'zlarni aniqlash uchun lug'at bilan ishlash, hamda har bir baytni inversiya holatida tahlil qilishimiz, o'quvchi uchun g'azalni yanada yaxshiroq anglashda ko'mak vazifasini bajaradi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib g'azalga shunday sharh berishimiz mumkin:

Taajjubki, Vaslidan xushhabar yetkach, har soat yordin umidvor, ammo o'zimdin noumid bo'lurmin. "Mehmoning bo'lub yuz jabr bilan halok aylay", - dedi, ajabo, Ul sho'xning har va'dasinda yuz va'da bor. Meni qatl etting, olib borib ko'yungda dafn aylasunlar, kimki, jannatga zulming tig'idin shahid bo'lganlar borur. Tig'in ko'ksun chokini tikdi, tanimda gum qildi, go'yoki el eshikni qulflab tufroqqa kalit ko'ngandek. Seni ko'yingda yonganlarni hidlaganimda, dimog'imga gul isidan ham xotirjamlik yetmaydi. Biz



yaqinmiz soʻzini qoʻy, chunki doʻst jon ichradur, baskim, boʻyundan tut, jon tomiri yaqinroq keldi. Ey Navoiy, koʻz mulki aro shah hayolin asra, kimki ham Bogʻi Zagʻon, ham Bogʻi Safid boʻlur.

Ushbu baytlardagi soʻz qudrati, soʻzchi sanʼati tahsinga loyiqdir. Navoiy hazratlarining aruz vazni qoidalarida yozilgan gʻazallarida nafaqat qofiyalanish, soʻz tanlash mahorati, balki, ularning Qurʼon hofizi boʻlganliklari va bu muqaddas kalimalarni oddiy xalq tushunadigan tilda bayt tarkibida berib oʻtilishi ularni buyuk ijod sohibi hamda komil inson ekanliklarini koʻrsatib turibdi. Yuqoridagi oyatni ham gʻazalga singdirilishi yaʼni Haq taolo bizga qon tomirimizdan-da yaqin ekanligi, bizni botiniy tuygʻularimizni ham bilib turishi Navoiy tomonidan: “Biz yaqinmiz soʻzini qoʻy, U jon tomirimizdan ham yaqinroq, jon ichradur, jon ichidadur, bas, uni mahkam tut”, - deb taʼriflangan. Xulosa qilib aytganda, Navoiy Qurʼon inson ruhini poklovchi, kamolotga eltuvchi yoʻl ekanligini anglagan va asosan axloqiy-didaktik mazmundagi oyat va hadislardan, yaʼni iqtiboslardan keng foydalangan. Va bu xalqning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashiga, hayotni anglashiga mohirona taʼsir koʻrsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. حسين و اعظ كاشفى بدايع الافكار فى صنايع الاشعار موسكو ١٩٧٧ ص ١١٠
2. Davlatov Olim Davlatovich “Alisher Navoiy sheʼriyatida Qurʼon oyatlari va hadislarining badiiy talqini”. –Samarqand, 2017.
3. Navoiyshunoslik (darslik) “Tamaddun”. –Toshkent, 2019.
4. Abdulxamidov Fayzullajon Nishanovich “Oʻzbek mutoz adabiyoti matnlarida iqtibos sanʼati hodisasi”. –Toshkent, 2022.
5. Ashirmatova Madina Zafar qizi “Alisher Navoiy va Fuzuliy gʻazallarida iqtibos sanʼati hodisasi”. –Toshkent, 2023.



6. Bekova Nazora Jo‘rayevna “Alisher Navoiyning hamd g‘azallari va “Ruh-ul Quds” qasidasining badiiyati”. –Toshkent, 2003.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Tafsiri Hilol”.-“Hilol Nashr”. –Toshkent, 2023.